52. Tipologik kategoriyaning tillararo, yaruslararo va so'z turkumlariaro xususiyatlari.

53. Tipologik kategoriyalarning ifodalanishdagi mazmun va ifoda planlari birliklarining tillararo aloqasi.

54. Ifoda planidagi til tizimi o'lchov birliklarining tillararo adekvatligi va adekvat emasligi, ularning yaruslararo sinonimligi, ularning taskonomik masalalari.

### **Tilning boshqa sathlarini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari.**

55. Tilning leksik sathini tadqiq etishda kategoriyalash muammolari.

56. Leksikani tizim sifatida qaralishi va tipologik yondashish imkoniyatlari.

57. Turli qardosh va qardosh bo‘lmagan tillardagi ayrim xususiyatlarni fonologik, grammatik, semantik, etimologik, leksik va stilistik nuqtai nazardan solishtirish.

58. Interferensiya muammolari.

59. Qiyosiy tipologiyaning leksikografiya, stilistika, tarjima nazariyasi va til o‘qitish metodikasi kabi fanlar bilan uzviy bog‘liqligi.

60. Tilshunoslikda yangi yo‘nalishlarning mavjudligi va ularning qiyosiy tipologiyada qo‘llanilishi.

61. Til va madaniyat.

62. Qiyoslanayotgan tillarning milliy-madaniy xususiyatlarining barcha til sathlarida namoyon bo‘lishi.

63. Kognitiv tilshunoslik haqida ta’limot.

### **Tipologik tadqiqotlarning tarixi.**

64. Qiyosiy tipologiyaning asosiy rivojlanish bosqichlari va faktorlari.

65. Tipologik tadqiqotlarning hozirgi yo‘nalishlari haqida.

66. Turli til sistemalarini qiyosiy o‘rganishning zamonaviy metodlari.

67. Qiyosiy tipologiyaning umumiy tasnifi, uning asosiy parametrlari.

### **Jahon madaniyatining ravnaq topishida tarjimaning roli.**

68. Tarjima tarixining nazariy masalalari.

69. Jahon tarjimachiligida tajriba maktablari.

70. Tarjima jarayonining bosqichlari.

71. Tarjima muqobilligi.

72. Tarjimada leksik muammolar.

73. Tarjima turlari.

74. Tarjimaning grammatik masalalari.

75. Tarjimaning stilistik masalalari.

76. Tarjimananing lingvomadaniy masalalari.

77. Tarjimaning pragmatik masalalari.

78. Tarjimada lingvistik va adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondoshuvning ahamiyati.

79. Tarjima va leksikografiya.

80. Tarjimada leksik va grammatik transformasiyalarning qo‘llanilishi.

81. Semantik va stilistik ekvivalentlik.

82. Adekvat tarjima tamoyillari.

83. Og‘zaki tarjima.

84. Badiiy tarjima muammolari.

85. Avtomatlashtirilgan tarjima.

86. Sohaga oid matnlar tarjimasi.

87. Termin va atamalar tarjimasi.

88. Tilning leksik tarkibini tarjima qilish masalalari.
89. Grammatik me'yor va tarjima.
90. Tarjima tarixi.
91. G'arb va Sharq madaniy aloqalari tarixi.
92. Tarjima maktablari.
93. Badiiy tarjimada uslub.
94. Og'zaki va yozma tarjimaning zamonaviy tarjima amaliyotidagi o'rni.
95. Tarjimada shaklif va ma'naviy aniqlik.
96. Muallif va tarjimon uslubi.
97. Tarjima va interpretatsiya.
98. Tarjimaning lingvistik va nolingvistik aspektlari.
99. Tarjimada obrazlilik va badiiylik.
100. Tarjimada millyi kolorit masalasi.
101. Tarjimada tarixiylik va variantlilik.
102. Sinxron va ketma ket tarjima
103. Ilmiy-texnikaviy tarjima.
104. Mualliflashtirilgan tarjima.
105. Moslama tarjima.
106. Erkin tarjima.
107. Ijodiy tarjima.
108. So'zma-so'z tarjima.
109. Ilmiy yoki akademik tarjima.
110. Tadbil tarjima.

**11.00.02. – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish imtihonlari umumiy savollari**

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining ta'rifidagi eng asosiy tushunchalarga ta'rif bering.

2. Hududiylik tamoyilini tushuntirib bering.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot metodlari qaysilar?
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyal fanining obyekti va predmeti nimadan iborat?
5. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga oid tadqiqotlar nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tarkibini tushuntiring.
7. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'rganish bo'yicha faoliyat olib borgan xorij olimlarini sanab bering.
8. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning qanday tadqiqot usullari mavjud?
9. Tadqiqotlarda geografik taqqoslash usuli qanday amalga oshiriladi?
10. Tarixiy usul deganda nimani tushunasiz?
11. Geografik tadqiqotlarda rayonlashtirish usulining ahamiyatini tushuntiring.
12. Statistik tahlil usuli nimaga asoslanadi?
13. Iqtisodiy-matematik modellashtirish usuli haqida nimalarni bilasiz?
14. Tizim-tarkib usuli deganda nimani tushunasiz?
15. Sotsiologik so'rov usuli qaysi hollarda qo'llaniladi?
16. Prognoz qilish usulining ahamiyatini izohlang.
17. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining shakllanishida G'arbiy Yevropa mamlakatlari qanday o'rin tutadi?
18. XX asr boshlarida sanoat geografiyasi poydevorining yaratilishi.
19. Britaniyada geografiya fanining shakllanishi haqida so'zlab bering.
20. Shvetsiyada geografiya fani tarixi haqida nimalarni bilasiz?
21. Hududiy ishlab chiqarish majmualari nima va uning asoschisi kim?
22. Nima sababdan hududiy ishlab chiqarish majmualari iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi?
23. Hududiy ishlab chiqarish majmualari va energiya ishlab chiqarish sikllari o'rtasidagi farq nimadan iborat?
24. Respublikamizda vujudga kelayotgan hududiy ishlab chiqarish majmualarini ta'riflab bering.
25. Tabiat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabat deganda nimani tushunasiz?
26. Tabiiy resurs nima?
27. Tabiat resurslaridan foydalanish me'yori deganda nimani tushunasiz?
28. Qanday tabiiy resurslarni bilasiz?
29. Energetik tabiiy resurslarga nimalar kiradi?
30. Tabiiy resurslar nima uchun iqtisodiy jihatdan baholanadi?
31. Madaniy yoki antropogen landshaftlar deganda nimani tushunasiz?
32. Hududiy mehnat taqsimoti nima?
33. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hududiy mehnat taqsimoti qanday amalga oshiriladi?
34. Hududiy mehnat taqsimotining iqtisodiy rayonlashtirish bilan qanday aloqasi mavjud?
35. O'zingaz yashayotgan viloyatning respublika mehnat taqsimotidagi o'rnini ta'riflab bering.
36. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgi va shartlari nimalardan iborat?

37. «Bozor»ning anʻanaviy sharqona va hozirgi zamon mohiyatini tushuntirib bering.
38. Raqobat uchun qanday shart – sharoitlar kerak?
39. Bozor munosabatlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishga qanday taʻsir koʻrsatadi?
40. Qadimgi yoki antik davr geografiyasining asosiy xususiyatlari qanday?
41. Oʻrta asrlarda geografiya ilmi rivojlanishi.
42. Buyuk geografik kashfiyotlar deganda nimani tushunasiz?
43. Buyuk geografik kashfiyotlarning jahon iqtisodiyoti rivojida ahamiyati qanday?
44. Buyuk Ipak yoʻlining Oʻrta Osiyoning rivojlanishidagi roli.
45. Yevropa mamlakatlarida sanoat inqilobi va uning turli mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishiga taʻsiri.
46. Geografiya fani rivojlanishining yangi davri.
47. Rossiya geografiya fanining yuksalishiga kimlarning hissi katta?
48. Eng yangi davr geografiyasining asosiy xususiyatlari qanday?
49. Sanoat tarmogʻi nima va u qaysi belgilar asosida ajratiladi?
50. Sanoat korxonalarini joylashtirishga qaysi omillar taʻsir qiladi?
51. Qishloq xoʻjaligining oʻziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
52. Qishloq xoʻjaligining hududiy tashkil etish shakllari qanday va ular ushbu tarmoq iqtisodiyotiga qay darajada taʻsir koʻrsatadi?
53. MDH davlatlari integratsion taraqqiyotida qanday imkoniyatlar mavjud?
54. Iqtisodiy geografik oʻrin nima?
55. Siyosiy geografik joylashish nima?
56. Geografik joylashuvning qaysi turi taraqqiyotga koʻproq taʻsir koʻrsatadi?
57. Mamlakatimiz taraqqiyotida geografik joylashuvning qaysi turi nisbatan toʻsiq boʻlmoqda?
58. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish va joylashtirishning asosiy tamoyillariga tavsif bering.
59. Ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning dastlabki tamoyilari va uning namoyandalari qarashlarini tavsiflang.
60. Imtiyozli hududlarning mamlakat rivojlanishidagi oʻrni qanday?
61. Erkin iqtisodiy zonalar qay darajada rivojlanish oʻchogʻini hosil qila oladi?
62. Hozirgi kunda mamlakatimizning qaysi hududlarida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilgan?
63. Shahar aholi punkti tushunchasini izohlang.
64. Shahar aglomeratsiyasi nima?
65. Shahar aholi punktlarining funksional tiplariga nimalar kiradi?
66. Shahar megolopolislarini tushuntiring.
67. Urbanizatsiyaning umumiy koʻrsatkichlarini tushuntirng.
68. Shahar aholi punkti maqomlarini izohlang.
69. Aholi deganda nimani tushiniladi?
70. Aholi dinamikasi nima?



71. Aholi tabiiy ko'payishining birinchi tipiga qanday mamlakatlar kiradi?
72. Aholining milliy tarkibi deganda nimani tushunasiz?
73. Demografik portlash tushunchasining mohiyatini tushuntiring.
74. Aholining tabiiy ko'payishiga qanday omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi?
75. Aholi migratsiyasi deganda qanday jarayon tushiniladi?
76. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.
77. Aholining hududiy joylanishi va aholi zichligi deganda nima tushuniladi?
78. Qishloq va shahar aholi punktlari va ularning shakllari qanday?
79. Madaniyat geografiyasi nimani o'rganadi?
80. Jahon aholisining diniy tarkibini izohlang.
81. Inson xulq-atvori, urf-odatlar, yurish-turishi va ruhiy kechinmalari hududiy tafovutlarga ega ekanligini izohlab bering.
82. Xulq-atvor geografiyasi mazmun-mohiyatini nima tashkil qiladi?
83. Urf-odatlar geografiyasi haqida nimalarni bilasiz?
84. Sotsial geografianing obyekti va predmeti nima?
85. Sotsial geografianing fanlar tizimida tutgan o'rnini aniqlang.
86. Sotsial-geografik tadqiqotlar nimalarni o'z ichiga oladi?
87. Sotsial geografiani tarkibini tushuntiring.
88. Sotsial sohalar hududiy tashkil etish deganda nimani tushunasiz?
89. Sotsial sohalar bilan bog'liq muassasalar joylashuviga qanday omillar ta'sir qiladi?
90. Sotsial geografiya rivojiga hissa qo'shgan o'zbek olimlari kimlar?
91. Sotsial geografiya rivojiga hissa qo'shgan rus olimlarini ko'rsating.
92. Tibbiyot geografiasining o'rganish obyekti va predmeti nima?
93. Tibbiyot geografiasining geografiya fanlari tizimida tutgan o'rnini tushuntiring.
94. Nozogeografik vaziyat nima?
95. Aholining salomatlik holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab bering?
96. Klassik geosiyosatning mohiyatini va asosini nima tashkil etadi?
97. Geosiyosiy qarashning asosiy yo'nalishlarini birinchi bo'lib kim ishlab chiqqan?
98. Davlatning asosiy xususiyatlariga qanday xususiyatlar kiradi?
99. Ratselning nazariya va g'oyalarda qanday izlanishlar jamlangan?
100. K.Xousxofer geosiyosiy qarashlarining asosini qanday fikr-mulohazalar tashkil etadi?
101. Insoniyatning global muammolariga misollar keltiring.
102. Global muammolarning o'zaro aloqadorligini tushuntirib bering.

**11.00.06 – Geodeziya. Kartografiya**  
**ixtisosligi bo'yicha doktorantura, tayanch doktorantura,**  
**mustaqil izlanuvchi va stajyor tadqiqotchilikka kirish imtihonlari uchun**  
**savollar**

1. Geodeziya fani maqsadi va vazifalari.

2. Geodeziyada qo'llanadigan koordinatalar va balandliklar sistemalari, Gauss-Kryuger yassi to'g'ri burchakli koordinata tizimi.
3. Chiziqlarni orientirlash: haqiqiy azimut, direksion burchak, magnit azimutlar. Bussol.
4. Plan, karta va profil haqida ma'lumot. Masshtab va uning turlari. Topografik plan va kartalar nomenklaturasi.
5. Gorizont burchakni o'lchash mohiyati. Burchak o'lchash asbobidagi adilaklar, qarash trubasi va sanoq olish moslamalarining tuzilishi.
6. Teodolitlar turlari; optik va elektron teodolitlar tuzilishi, tekshirishlari va tuzatishi.
7. Teodolit s'yomkasi mohiyati. Teodolit yo'llari va ularni qurishda dala ishlari. Teodolit s'yomkasida tafsilotlarni s'yomka qilish.
8. To'g'ri va teskari geodezik masalalar. Teodolit yo'li nuqtalari koordinatalarini hisoblash.
9. Nivelirlashning mohiyati va usullari; geometrik nivelirlash usullari, nivelirlar turlari. Texnik nivelir va nivelir reykalari.
10. Trassa o'qini piketlarga bo'lish va doiraviy egrilar bosh nuqtalari o'rnini aniqlash va joyda mahkamlash.
11. Taxeometrik s'yomka mohiyati va s'yomkani bajarish uchun asboblar, Taxeometrik s'yomkaning geodezik asosi, s'yomkani bajarish.
12. Davlat III va IV sinf nivelir tarmoqlarini qurish dasturi va ularni texnik tavsifi.
13. Nivelirlash yo'llarini reper va markalarga bog'lash. Keng daryolar va jarlar orqali balandliklarni uzatish.
14. 1- va 2-razryad zichlash triangulyatsiyasi va uni qurish chizmalari: geodezik to'rtburchak, markaziy sistema va uchburchaklar zanjiri.
15. Zichlash poligonometriya tarmoqlari haqida ma'lumot. Tarmoqni loyihalash va aniqligini baholash.
16. Planli tayanch punktlarini to'g'ri kestirmalar orqali zichlashda dala va kameral ishlar.
17. Global sun'iy yo'ldosh navigatsiya GPS va GLONASS sistemalari haqida ma'lumot bering.
18. Sun'iy yo'ldosh priyomniklari va ular bilan yer nuqtalari koordinatalarini aniqlash.
19. Oliy geodeziyaning ilmiy va ilmiy-texnik vazifalari. Ilmiy va amaliy vazifalarni bajarishda matematika, fizika, mexanika, astronomiya va shunga o'xshash fanlar bilan aloqasi.
20. Meridian va parallel yoy uzunliklarini hisoblash; s'yomka trapesiyasi ramkalari va maydonini hisoblash.
21. Yerning tuzilishi; og'irlik kuchi va uni o'lchash haqida ma'lumot, shovun chizig'ining og'ishi va uni gravimetrik hamda astrono-geodezik usullarada aniqlash haqida ma'lumot.
22. Nivelir va nivelir reyklarini tekshirishlari va sinashi; nivelir yo'llari loyihagini tuzish, nivelir belgilarini o'rnatish.
23. Davlat triangulyatsiyasi tarmoqlarini loyihalash, aniqligini baholash; punktlar o'rnini joyda tanlash, markazlarni va yer usti belgilarni qurish.
24. Davlat poligonometriya tarmoqlari, poligonometriyani qurish xususiyatlari. Burchaklar va tomonlarni o'lchash, o'lchashlar aniqligini baholash.
25. GPS va GLONASS sistemalari tarkibi. Yer sirtidagi nuqtalar koordinatalarini sun'iy yo'ldosh o'lchashlaridan aniqlash; sun'iy yo'ldosh geodezik tarmoqlari.
26. Geodezik asosni yaratish: sxemalar, aniqligi, barpo etish usullari. Yirik masshtabli s'yomka usullari. Yer osti kommunikatsiyalari s'yomkasi.
27. Dala trassalash: Trassa o'qini joyga ko'chirish. Burilish burchaklari va to'g'ri chiziqlar uzunligini o'lchash.
28. Loyihani geodezik tayyorlash. Rejalash ishlarini bajarish tartibi va aniqligi. Loyihaviy burchak, masofa va nuqtaning loyiha balandligini joyga ko'chirish.
29. Montaj o'qlarini tanlash, ularni joyda mahkamlash va tekshirish. Konstruktsiyalarni planli o'rniga o'rnatish va tekshirish usullari.
30. Bosh planlarni tuzish. Ijroviy s'yomka mazmuni va uni bajarish uchun geodezik asos, yer osti kommunikatsiyalarini ijroviy s'yomkasi.
31. Shaharlar hududida geodezik planli va balandlik asos. Shahar hududida yirik masshtabli injenerlik-topografik s'yomkani bajarish.
32. Inshootlarni loyihalash uchun geodezik qidiruv ishlari bosqichlari; daryo, kanal va ochiq zah zovurlarining s'yomkalari.

33. Cho'kishlarni o'lash. Chuqurlik (kotlovan) tubining ko'tarilishini kuzatish, cho'kishlarni kuzatish uchun belgilarni joylashtirish; inshootlarni planli siljishini aniqlash.
34. Kartografik belgilar tizimi haqida nimalarni bilasiz, uning qanday yo'nalishlari mavjud?
35. Shriftlarning xususiyatlari va ularning kartadagi vazifasi haqida ma'lumot bering. Misollar bilan tushuntirib bering.
36. Rang va uning tavsiflari deganda nimalarni tushunasiz? Kartalarni jihozlashda rang asosiy vosita sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
37. Relefnı tasvirlashda gipsometrik shkalarning ahamiyati va gipsometrik shkalalarni qurish tamoyillari (prinsiplari) qanday?
38. Karta va atlaslarni umumiy elementlarining jihozlanishi haqida ma'lumot bering.
39. Karta va atlaslarni jihozlashda Adobe Photoshop qanday dastur va uning Adobe Illustrator hamda CorelDRAW dasturlaridan farqi, ustunlik jihatlari nimada?
40. Kartalar (karta, geografik karta, umumgeografik karta, mavzuli karta va maxsus karta) ularni har birini tarifi, elementlari, xususiyatlari.
41. Kartografik proeksiyalar haqida tushuncha. Kartografik proeksiyalarni xatoliklar xarakteri bo'yicha tasnifi. Teng burchakli, teng maydonli (yuzali) va ixtiyoriy (teng oraliqli) proeksiyalar va ularni xususiyatlari.
42. Kartografik shartli belgilar (masshtabsiz, maydonli (konturli) chiziqli va tushuntirish) va ularni xususiyatlari va vazifalari. Misollar bilan tushuntiring.
43. Kartografik generalizatsiya: mohiyati, omillari (faktorlari) va turlari. Misollar bilan tushuntiring.
44. Geografik kartalarni tasnifi (masshtabi, xududiy qamrovi, mavzuyi va maqsadi bo'yicha), turlari va tiplari. Misollar bilan tushuntiring.
45. Karta va atlaslarni yaratish uchun manbalar va ularni turlari. Manbalarni xar bir turiga alohida izoh bering.
46. Kartalarni loyixalash, tuzish va nashr qilish. Kartalarni yaratish bosqichlari. Kartani dasturi va uni ishlab chiqish.
47. Umumgeografik kartalar: ta'rifi, tasnifi, ularga qo'yiladigan talablar. Nima uchun umumgeografik kartalar mazmuni bo'yicha tasniflanmaydi?
48. Mavzuli kartalar: tabiiy geografik, aholi, iqtisodiy geografik kartalar: ularni har birini mazmun mohiyati, kartaga olish yo'nalishlari va xususiyatlariga izoh bering.
49. Kartografik tadqiqot usuli haqida tushuncha. Kartalarni taxlil qilishni asosiy usullari (kartalar bo'yicha bayon, grafik, grafoanalitik, matematik-kartografik modellashtirish) haqida malumot bering.
50. Geografik atlaslar: ta'rifi, tasnifi, xususiyatlari. Milliy atlaslar. Atlaslarni ichki bir butunligi, deganda nima tushuniladi?
51. Rel'efni tasvirlash usullari: shtrixlar, gorizontallar, gipsometrik shkalalar, soya nurlar (отмычка), balandlik otmetkalari haqida ma'lumot bering.
52. Umumgeografik kartalar: axamiyati, tarifi, maqsadi, tasnifi va ularga qo'yiladigan talablar.
53. Umumgeografik kartalarni loyixalash va tuzishni asosiy xususiyatlari.
54. Obzor umumgeografik kartani tarkibi (strukturasi) va uni asosiy elementlarini tushuntiring.
55. Eng muxim umumgeografik karta va atlaslar: 1:1 000 000 va 1:2 500 000 masshtabli dunyo kartalari va umumgeografik mavzudagi Dunyo atlası (1-nashri 1954 yili, 2-nashri 1967 yili va 3-nashri 1999 yili) haqida ma'lumot bering.
56. Gipsometrik kartalar haqida tushuncha: rel'efni tasvirlashga qo'yiladigan talablar va uni tuzish tartibi haqida ma'lumot bering.
57. Topografik kartalarni tuzish va yangilash. Kartalarni yangilashni zamonaviy texnologiyasi haqida ma'lumot bering.
58. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarni mohiyati, axamiyati, maqsadi, tasnifi va xususiyatlari haqida ma'lumot bering.
59. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarni loyixalash va tuzish usullari: taxririyy-tayyorgarlik va tuzish ishlari tartibini sharxlab bering.
60. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarni tuzish va ishlab chiqishni o'ziga xos xususiyatlari (axoli, iqtisodiyot, ijtimoiy infratuzilma va b.) ni tushuntiring.
61. Tabiiy kartalar qanday yo'llar bilan tuziladi. Geotizimga qanday ta'rif berish mumkin, mohiyati, darajalarini tushuntiring.

62. Avtorlik original, maket va eskizga tariflar bering, misollar keltiring.
63. Tabiiy kartalarni tuzishda qo'llanadigan asosiy metodlarning nomlarini keltiring, ularga qisqacha ta'rif bering, mohiyatini misollar bilan tushuntiring.
64. Ekologik kartografiyani maqsadi, predmeti va vazifalari hamda uning rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumot bering.
65. Ekologik kartalashtirishning tamoyillari, usullari va geografik qonuniyatlari hamda kartalarining tasniflanishini tushuntiring.
66. Ekologik kartalashtirish metodlari va ekologik ma'lumotlarni tasvirlashda eng ko'p ishlatiladigan usullar haqida ma'lumot keltiring.
67. Ko'chmas mulk kadastrini mazmuni va mohiyati. Ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritishning normativ huquqiy asoslari.
68. Ko'chmas mulk obyektlarini klassifikatsiyalash tizimi. Aholi punktlari yerlarining klassifikatsiyasi.
69. Yer uchastkasining ko'chmas mulk obyekti sifatida mohiyati. Yer fondi toifalari. Yer munasobatlari.
70. Qaraqolpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqiyosida ko'chmas mulk kadastrini yaratish va yuritish.
71. Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish.
72. Ko'chmas mulk obyektlarini texnik inventarizatsiyadan o'tkazish ishlarini tashkil etish va uni o'tkazish tartibi.
73. Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'ma jildini rasmiylashtirish tartibi. Yer uchastkalariga kadastr pasportini rasmiylashtirish.
74. Ko'chmas mulk obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish. Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborotlarni taqdim etish.
75. Ko'chmas mulk davlat kadastrini yuritishda bajariladigan ishlar va ko'rsatiladigan xizmatlar tarkibi.
76. Binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi.
77. Kadastrning mazmun-mohiyatini izohlang, kadastr ishlarining rivojlanish tarixi haqida ma'lumotlar keltiring.
78. O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr birliklarga bo'lish prinsiplari, yer uchastkalari va binolar, inshootlarning kadastr raqamlarini shakillantirish tartibini tushuntiring.
79. Davlat kadastrlari yagona tizimini (DKYaT) yuritish tartibi va obyektlari haqida ma'lumotlar keltiring.
80. Davlat yer kadastrini mazmuni va uni yuritish tartibi to'g'risida ma'lumot bering.
81. Binolar va inshootlar davlat kadastrlari mazmuni va ularni yuritish tartibi to'g'risida ma'lumot bering.
82. Fotogrammetriya va Yerni masofadan turib tadqiq qilish fani, vazifalari, boshqa fanlar bilan aloqasi.
83. Elektromagnit tulqinlar spektri va turli diapazonlarda suratga olishning fotografik xususiyatlari.
84. Suratga olishda qo'llaniladigan uchish apparatlari. Obyektivlarning xarakteristikalarini.
85. Yerdan, havodan va koinotdan olingan suratlarining turlari va texnologiyasi. Aerokosmik s'emkalarining guruhlarga bo'linishi.
86. Aerofotosuratni orientirlash. Aerofotosuratni orientirlash elementlari. Ichki orientirlash. Tashqi orientirlash. Aerofotosuratlar juftini o'zaro orientirlash.
87. Suratlarini transformatsiya qilish. Transformatsiyalashning geometrik sharoitlari. Transformatsiyalashning optik sharoitlari. Fotoplanni montaj qilish.
88. Deshifrovka turlari. Tarmoqli deshifrovka. Deshifrovka usullari. Deshifrovka jarayonida obyektlarni tasniflash.
89. Geografik axborot tizimlar (GAT) fanining maqsadi va vazifalari. Geoaxborot tizimlar muhiti va tuzilishi.
90. Geografik axborot tizimlarning kartografik asoslari Geografik xaritaning xususiyatlari. Geofazoviy ma'lumotlar.
91. Ma'lumotlar bazasining tizimi va modullari. Ma'lumotlarni boshqarish tizimi va uning vazifalari.
92. Kartani kompyuterga kiritish usullari. Kartalarni raqamli tarzga aylantirish usullari. Digitayzer va skanerdan foydalanish. Ma'lumotlarni tekshirish va to'g'rilash yo'llari.
93. Joyning balandliklar raqamli modellari to'g'risida tushuncha: TIN, IDW. Modellarni yaratish usullari.

94. Internetda joylashtirilgan ma'lumotlarni qisqa tavsifi va ulardan foydalanish yo'llari. WebGIS Web geografik axborot tizimlari mohiyati.
95. Geografik axborot tizimning qidiruv tizimi. Hodisa va obyektlarni fazoviy yoki hududiy taqsimlanishining qonun-qoidalarini aniqlash va baholash.
96. Fazoviy tahlilning maqsadi. Obyekt uchun to'planadigan ma'lumotlar, maxsus buyruqlar va hududiy munosabatlar.
97. Hozirgi qonun hujjatlariga asosan "Qishloq xo'jaligi yerlari" (sug'oriladigan yerlar) toifasini qanday tartibda yoki kim tomonidan boshqa toifaga o'zgartirish mumkin?
98. Davlat qaramog'ida bo'lgan ijtimoiy obyektlarni qurish uchun yer maydoni qanday tartibda ajratiladi?
99. Imoratlar va inshootlarni baholash jarayonida bazis narxlariga qaysi davlat muassasasi tomonidan tasdiqlangan koeffitsientlar qo'llaniladi?
100. Delimitatsiya va demarkatsiyaning ma'nosini tushuntirib bering.

### **13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovi savollari**

#### **Pedagogika nazariyasi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovi uchun savollari**

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni asosida pedagogika fani va uning jamiyatda tutgan o'rni haqida. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning kasbiy ta'limda tutgan o'rni.
2. Uzluksiz ta'lim va uning faoliyat ko'rsatish printsiplari - ta'limning ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'naltirilganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, xar tomonlama komil insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi, iqtidorli yoshlarning rag'batlantirilishi;
3. Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari: maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.
4. Fan, tabiat va jamiyat taraqqiyoti haqidagi yangi fundamental va tadqiqiy bilimlarni shakllantirish, yuqori malakali ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlash sohasi sifatida.
5. Pedagoglik kasbi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishi va ravnaq topishi. Sharq mutafakkirlari (al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqalar) va G'arb pedagoglari jamiyatda pedagoglik kasbining tutgan o'rni haqida.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarining demokratik - huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurishda, barkamol shaxsni shakllantirishda tutgan o'rni haqida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni (2020 yil) ta'lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish haqida. Barkamol shaxsni shakllantirishga qo'yilgan talablar.
7. O'qituvchi-murabbiyning o'ziga xos fazilatlari, ilmiy dunyoqarashi va insonparvarligi. Uning ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazari, barkamol avlod tarbiyasi uchun o'qituvchi-murabbiyning jamiyat oldidagi mas'uliyati, uning kasbiy bilim va ko'nikmalari.
8. Pedagog iste'dodi va qobiliyati. O'qituvchi-murabbiyning pedagoglik axloq-odobi va nazokati, uning o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblari bilan muloqoti.
9. Pedagogik mahoratni egallash yo'llari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Yan Amos Komenskiy, Lev Nikolaevich Tolstoy, Abdulla Avloniy, Shakuriy va Behbudiy kabi buyuk shaxslarning ilmiy salohiyati va pedagogik madaniyati. Ularning pedagogika fani va maorif rivojiga qo'shgan hissasi.
10. Pedagogika fan sifatida. Uning predmeti, maqsad, vazifalari hamda kategoriyalari. Pedagogik tadqiqot metodlari.

11. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida. Uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'рни, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari.
12. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari: tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, ko'nikma va malakalar, rivojlanish.
13. Pedagogika fanining tuzilishi. Pedagogika fanining tarmoqlari.
14. Pedagogikaning falsafa, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, tibbiyot va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi.
15. Pedagogika fanlari tizimi. Asosiy pedagogik jarayonlar va ularning bir butunligi, pedagogik jarayonlarni tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
16. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlari. Pedagogika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularning tavsifi.
17. Nazariy tadqiqot metodlarining qiyosiy-tarixiy tahlili, qiyosiy taqqoslash, umumlashtirish, modellashtirish va boshqalar.
18. Amaliy tadqiqot metodlari ilmiy kuzatish, suhbat, intervyu, so'rovnoma, test, reyting, statistik tahlil, hujjatlar tahlili, ilmiy tajriba, ilmiy tajriba sinovi (tabiiy, laboratoriya, amaliy va boshqalar). Tajriba-sinov ishlari va ularni kuzatish metodikasi.
19. Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi. Pedagogik antropologiya.
20. Shaxs haqida tushuncha. Individ - shaxs, shaxsning o'ziga xosligi. Shaxs rivojlanishining biologik va ijtimoiy asoslari hamda jihatlari.
21. Shaxs rivojlanishi va tarbiyasining o'zaro uyg'unligi. Bola shaxsi - tarbiya ob'ekta va sub'ekti sifatida. Shaxs faoliyati.
22. Tarbiya nazariyasi, uning maqsad va vazifalari. Tarbiya maqsadi. Tarbiya maqsadining xilma-xilligi. Hozirgi demokratik jamiyatda xar tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi sifatida.
23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy ildizlari haqida.
24. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, ibn Sino, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Avloniy va boshqalar) barkamol shaxs tarbiyasi haqida.
25. Tarbiya vazifalari va mazmuni shaxsning milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'rganishi, uning intellektual (aqliy), fuqarolik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyasi haqida. Xorijiy mamlakatlarda tarbiya kontsepsiyasining asosiy g'oyalari.
26. Didaktika - ta'lim nazariyasi sifatida. Ta'lim paradigmalari.
27. Ta'lim va o'qitish nazariyasi (didaktika) - pedagogika fanining tarkibiy qismi hamda ma'lumotli bo'lish - ma'naviy-amaliy faoliyat jarayoni sifatida. Uning jamiyatda tutgan o'рни.
28. Didaktikaning vazifalari va ahamiyati, asosiy tushunchalari. Hozirgi davr didaktika rivojlanishining asosiy yo'nalishlari (kontsepsiyasi). Uzluksiz ta'lim kontsepsiyasi. O'rta maxsus va kasb-xunar ta'limi kontsepsiyasi.
29. Rivojlanuvchi va tarbiyalovchi ta'lim kontsepsiyasi. Uni hozirgi davr pedagogikasida amalga oshirishga turlicha yondashuvlar.
30. O'quv jarayonini "texnologiyalashtirish" kontsepsiyasi. Uning ijobiy va salbiy tomonlari. Hozirgi davr didaktikasi tizimlari (an'anaviy va "zamonaviy").
31. Hozirgi davr pedagogikasida ta'lim paradigmalari an'anaviy-konservativ, ilmiy, insonparvarlashgan (mantikiy), ratsionalistik (bixevioristik), texnokratik, ezoterik. Zamonaviy didaktik tizimlar to'g'risida tushuncha.
32. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida. Ta'lim tamoyillari. Ta'lim jarayoni mohiyati. Ta'lim jarayonining yagona tizim sifatidagi tasnifi.
33. Ta'lim - borliqni bilishning o'ziga xos shakli sifatida. O'qitish va o'qish jarayonlari tavsifi, ularning ta'lim jarayonidagi uzaro aloqasi.

34. Sharq (al-Forobiy, Beruniy, ibn Sino) va G'arb mutafakkirlarining gnoseologik g'oyalari (qarashlari) ta'lim jarayonining asosi sifatida. Ta'lim jarayonida o'zaro aloqa va bolalarning rivojlanishi.
35. O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarining birligi. O'quvchi- yoshlarning o'quv faoliyati va uning tuzilishi.
36. Tarbiyalanuvchilarning reproduktiv va ijodiy bilish faoliyati. Bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma va malakalar jarayoni hamda shaxsning rivojlanishi.
37. Ta'lim jarayonini tashkil qilishda tarbiyachilar yo'l qo'yadigan xatolar va ularning oldini olish. Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillari. Ularning psixologik va fiziologik asoslari. Sharq mutafakkirlari ta'lim tamoyillari haqida.
38. Ta'lim metodlari va vositalari. Ta'lim metodlari va usullari haqida tushuncha.
39. Hozirgi zamon didaktikasi va xususiy metodikasida ta'lim metodlarini tavsiflashga turlicha yondashuvlar. Ayrim ta'lim metodlarining tavsifi.
40. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, ibn Sino va boshqalar) ta'lim metodlari haqida.
41. Turli yosh guruhlarida ta'lim metodlarini qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari. Ta'lim mazmunining o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning bilish faoliyati, rivojlanish darajasiga ko'ra ta'lim metodlarini faollashtirish yo'llari.
42. Ta'lim metodlarini takomillashtirish. Pedagogika tajribasida ta'lim metodlari samaradorligini oshirish yo'llari.
43. Ta'limning texnikaviy vositalari, kompyuterlar va turli audio-vizual vositalardan foydalanish imkoniyatlari.
44. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta'lim-turlari: illyustrativ (an'anaviy); muammoli; dasturlashtirilgan ta'lim.
45. Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning turlari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish.
46. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo'llari.
47. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg'unlashtirish.
48. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferentsiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auktsion, "mujizalar maydoni", "tergovchi bilimdonlar olib boradi", bayt-barak va boshqalar.
49. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferentsiyalar. O'quvchilarning uy vazifalari, uni tashkil etish mazmuni va metodlari.
50. Talim shakllarini rivojlantirish istiqboli. O'quv ishlarini tashkil etishning darsdan tashqari shakllari: fan to'garaklari, ilmiy jamiyatlar, olimpiadalar va boshqalar.
51. O'qituvchi faoliyatida, o'quv ishlari turli shakllarining o'zaro aloqadorligi.
52. STEAM ta'lim (STEAM Education). Iqtidorli o'quvchilarni o'qitish (Education of gifted children)
53. STEAM - Science (fan), Technology (texnologiya), Engeneering (injeneriya), Mathematics (matematika) o'qitish: hayot ta'limi (STEAM Learning: Education for life). Transversal va tajribaga asoslangan ta'lim (Tranversal and experiential knowledge).
54. STEAM shaxs rivojining ijodiy - aspekti. Art (sanat) - STEAM konsepsiyasi: Music (musiqa) STEMM, Reading (o'qish san'ati) - STREAM. STEAM ta'lim dasturlari. STEAM texnologiyalarning ahamiyati. Geymifikatsiya: o'yin orqali o'rgatish (gamifasion: learning through play). Zamonaviy iqtidorlik konsepsiyasi.
55. Iqtidorli bola shaxsining o'ziga xosliklari. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash. "Noosfera" modeli asosida iqtidorli o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish. TRIZ va ARIZ. Prezident maktablari. Ijod maktablari.
56. Xalqaro baholash dasturlari (Programme for the International Assesment). Xalqaro baholash dasturlarining meyoriy asoslari. Xalqaro baholash dasturlari metodologiyasi.

57. PISA o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash xalqaro dasturi. PIRLS - matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot. TIMSS - maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring. ISILS - kompyuter va axborot savodxonligi bo'yicha xalqaro tadqiqot.
58. Tarbiya jarayonining mohiyati, maqsad va vazifalari. Tarbiya jarayonining mohiyati, mazmuni. Tarbiya jarayonining maqsadi.
59. Tarbiya turlari. Tarbiya, o'z-o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash tushunchalari. Tarbiya jarayonida tarbiyachi shaxsi.
60. Hozirgi demokratik jamiyatda har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikr yuritadigan erkin shaxsni shakllantirish tarbiya maqsadi sifatida.
61. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy axloqiy ildizlari haqida. Tarbiya vazifalari orqali shaxsni barkamol shakllantirish.
62. Tarbiya jarayoni qonuniyatlari va printsiplari. Tarbiya jarayoni tuzilishi hamda uning qonuniyatlari. Tarbiya qonuniyatlari tarbiya jarayonining mohiyati sifatida.
63. Ijtimoiy sharoitlarga bog'liqligi qonuniyati. Inson tabiati bilan bog'liqligi qonuniyati. Tarbiya jarayonidagi sharoit bilan bog'liqligi qonuniyati. Tarbiya, ta'lim va shaxsni rivojlanish jarayonlarining o'zaro bog'liqligi.
64. Tarbiya jarayonining metodlari va vositalari. Tarbiya metodlari haqida tushuncha. Tarbiya metodlarining maqsadi, printsiplari, mazmuni va o'quvchilarning yosh, o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyalanganlik darajasiga bog'liqligi.
65. O'zbek xalq pedagogikasida tarbiya metodlari. Tarbiya metodlari klassifikatsiyasi. Tarbiyada ibratnamunaning tutgan o'rni. Ishontirish metodlari, hikoya, munozara suhbat, ma'ruza va boshqalar.
66. O'quvchilar jamoasi – yaxlit pedagogik jarayonining asosiy shakli. Jamoa haqida tushuncha.
67. Sharq mutafakkirlari jamoa va uning shaxsiga ta'siri to'g'risida. Jamoaning pedagogik vazifalari. Jamoaning turlari. Bolalar va yoshlar jamoasining belgilari va tuzilishlari.
68. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish va o'quvchilarni aqliy tarbiyasi. Ilmiy dunyoqarash, tafakkur va milliy mafkurani shakllantirish o'quv-tarbiya jarayoni maqsadi sifatida.
69. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Ilg'or ilmiy dunyoqarashning asosiy tarkibiy qismlari: ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur.
70. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va prezident asarlarida yoshlarning aqliy kamoloti, tafakkur va ilmiy dunyoqarashga qo'yilgan talablar.
71. Ma'naviy-axloqiy tarbiya va uning mazmuni. Bolalar tarbiya jamoasi - yagona pedagogik jarayonning asosiy shakli. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish - ta'limning asosiy maqsadi sifatida.
72. Sharq mutafakkirlari (Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar)ning ma'naviy-axloqiy g'oyalari va ularni hozirgi kunda shaxsni ma'naviy-axloqiy kamol toptirish va shakllantirishdagi ahamiyati.
73. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida shaxsni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va shakllantirishning asosiy printsiplari: umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik.
74. Shaxsni shakllantirishda fuqarolik va huquqiy tarbiya
75. Fuqarolik tarbiyasining mazmuni va vazifalari. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida yoshlarning fuqarolik tarbiyasi.
76. Fuqarolik tarbiyasida davlat ramzlaridan foydalanish. Fuqarolik tarbiyasining umuminsoniy jihatlari: tinchlikni saqlash, ekologik muammolar, iqtisodiy, ilmiy. madaniy hamkorlik.
77. Mehnat va iqtisodiy tarbiya. Shaxsning kamol toptirish jarayonida mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari.
78. Sharq mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida. Mehnat qilish ongining bosh vazifasi odamlarda ongli mehnatkash, mulkdorlik psixologiyasini shakllantirish.
79. Jismoniy tarbiya va nafosat tarbiyasining mazmuni va metodlari. Shaxsning har tomonlama kamol topishida jismoniy tarbiyaning o'rni va vazifalari haqida. Jismoniy tarbiya konsepsiyasi.



80. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiya haqida. O'quvchi – yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kompleks dasturi. Akademik litsey va kollejlarda jismoniy tarbiya mazmuni.
81. Tarbiya jarayonini tashxis etish. Shaxsni tarbiyalanganligini tashxis etishning mazmuni. Tarbiyalanganlikni aniqlash mezonlari. Xususiy va umumiy mezonlar.
82. Tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda tarbiyachi shaxsining o'rni. Shaxsda axloqiy sifatlarning shakllanishi. SHaxsda mehnatga bo'lgan ijobiy munosabatning shakllanishi. Shaxsning xulqi.
83. Oila tarbiyasi asoslari. Jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida oila tarbiyasining kontseptual asoslari. Oila va uning tarbiyaviy vazifalari. Oilaning hozirgi davrdagi muammolari. Oila a'zolarining axloqiy munosabatlari.
84. Oila tarbiyasining huquqiy asoslari. "Oila" ilmiy-amaliy markazining vazifalari va faoliyatining mazmuni.
85. "Maktab, oila va jamoatchilik" kontseptsiyasining asosiy yo'nalishlarida ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilikning aloqadorligi.

### **Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish sinovi uchun savollari**

1. Eng qadimgi davrlardai VII asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar
2. Eng qadimgi yodgorliklarda inson tarbiyasiga oid fikrlar. Qadimgi davrlarda tarbiyaning kelib chiqishi va uning kishilarning mehnat faoliyati bilan bog'liqligi. Ibtidoiy odamlar hayotida tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Eng qadimgi yozma manbalarda ta'lim-tarbiya masalalari. "Avesto" - eng qadimgi ma'rifiy yodgorlik namunasi. Urxun-Enasoy obidalari, ularning ma'rifiy ahamiyati.
4. VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikr
5. Islom dini ta'limotining ta'lim-tarbiyaga ta'siri. Musulmon maktablarida ta'lim- tarbiya mazmuni. Arab tilining savdo va madaniy aloqalar tiliga aylanishi. Qur'onning muqaddas falsafiy-axloqiy asar sifatida o'rganilishi.
6. Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy va boshqa muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari.
7. Imom al-Buxoriyning "As-saxix", "Al-adab al-mufrad" asarlarining inson ma'naviy kamolotining tarkib topishidagi o'rni.
8. Sharq Uyg'onish davri va unda ta'lim-tarbiyaning taraqqiy etishi. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari.
9. Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Kaykovus, Axmad Yugnakiylarning ta'limiy- axloqiy qarashlari.
10. Axmad Yassaviy "Hikmatlar"ining axloqiy-ma'rifiy ahamiyati. Ta'limiy-axloqiy asarlarning tarjima qilinishi.
11. XIV- XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. XIV- XVI asrlarda Movarounnahrda ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.
12. Ijtimoiy hayotning tarbiya, ta'lim va pedagogik fikr taraqqiyotiga ta'siri. Ilm-fan, ta'lim- tarbiyaning ravnaq topa borishi.
13. Movarounnaxrda Amir Temurning markazlashgan mahalliy davlatining paydo bo'lishi va uning ilm-ma'rifatning taraqqiy etishidagi roli.
14. Maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya xususiyatlari. Tabiiy fanlarni o'qitishning rivojlanishi.
15. Ulug'bekning ilm-ma'rifat sohasidagi xizmatlari va ta'lim-tarbiya tizimi.
16. Zahiriddin Muxammad Boburning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya sohasidagi xizmatlari.
17. Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy, Davoniy, Xusayn Voiz Koshifiylarning ta'limiy-axloqiy merosi.
18. XVII asrdai XIX asrning yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar. XVII- XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklarida ilm-fan taraqqiyoti.
19. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Muhammad Sodiq Qoshg'ariy va uning "Odob as-solixin" asari. Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston" kabi ma'rifiy asarlarining turkiy tilga tarjima qilinishi.

20. Muxammad Sodiq Qoshg'ariynipg "Odob as-solixin" asarida odob-axloq masalalari.
21. XIX asrniig ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida tarbiya va pedagogik fikrlar. Turkiston o'lkasida islom-diniy tarbiyaviy muassasalarning an'anaviy tizimi.
22. 1917-1990 yillarda O'zbekistonda maktab va pedagogika fani.1917 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingunga qadar bo'lgan davrda O'zbekistoida xalq ta'limi va pedagogika fanida turg'unlik.
23. 70 yil davomida xalq ta'limida adolatsiz milliy siyosatning amalga oshirilishi. Xalq maorifi soxasida maktab darsliklari va o'quv ko'llanmalarining yaratilishi.
24. Ta'lim-tarbiya jarayonining mustabid tuzum maqsadiga muvofiq tashkil etilishi va uning salbiy oqibatlari.
25. O'zbekiston ma'rifatparvarlari Shakuriy, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning ilmiy-pedagogik merosining o'rganilishi.
26. Mustaqil O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun Respublikamizda ta'lim-tarbiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlashning xuquqiy asosi sifatida.
27. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo'nalishlari, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida jamiyat rivojining ma'naviy- axloqiy negizlari va yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlarning ifoda etilishi.
28. O'zbekiston Respublikasi rivojining yangi bosqichida ta'lim-tarbiya islohotlari: Sh. M. Mirziyoevning ta'lim-tarbiyaga oid fikrlari.
29. Jahon pedagogika fani rivojlanishi tarixi.Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim-tarbiya. Qadimgi Sharq davlatlarida va Yunonistonda pedagogik fikrlarning paydo bo'lishi.
30. Qadimgi Yunoniston (Sparta, Afina) davlatlarida tarbiya va ta'lim tizimi. Qadimgi yunon faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va Demokrit) ta'limotida tarbiya masalalari.
